

ABULG‘OZIY BAHODIRXON HAYOTI VA ASARLARIGA DOIR

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

antropologiya va etnologiya yo‘nalishi

2-kurs talabasi

Usanova Muxlisa

+998933047175

muxlisausanova03@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Xiva xoni, tarixchi Abulg‘oziy Bahodirxon hayoti, faoliyati, asarlari haqida ma’lumot beradi. Mashaqqatli hayot yo‘li davomidagi hayotiy tajribalarini samarali ishlatgani, uning tarix ilmi uchun qo‘sghan xissasi va xizmatlari, bergen ma’lumotlarining hozirgi kundagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Abulg‘oziy Bahodirxon, Niso va Durun, Taborak qala’si, Shajarayi turk, Shajarayi tarokima, Manofe ul-inson, Xiva xonligi, Berka sulton, Elbarsxon, Bilbarsxon, Avishxon, Ubaydxon, Abdullaxon II

Annotation: The article provides information about the life, work, and works of Khiva Khan, historian Abulgazi Bahadirkhan. It talks about his effective use of his life experiences during his hard life, his contributions and services to the science of history, and the importance of the information he provided today.

Key words: Abulgazi Bahadir Khan, Nisa and Durun, Taborak Castle, Shajarai Turk, Shajarai Tarokima, Manofe ul-Insan, Khiva Khanate, Berka Sultan, Elbars Khan, Bilbars Khan, Avish Khan, Ubayd Khan, Abdullah Khan II

XVII asrda Abulg‘oziy Bahodirxon Xiva xonligida hukmronlik qilgan shayboniyxonlardan biridir. U tarixchi va tabib sifatida ham tilga olinadi. Otasi Arab Muhammadxon bo‘lib, o‘g‘illari Habash Sulton va Elbars Sulton boshchiligidagi isyonchilar qo‘lida qoladi va bir necha yil Qum qal’asiga

qamaladi, keyinchalik o‘ldiriladi. Boshqa o‘g‘illari Asfandiyorxon Eronga, Abulg‘oziy Bahodirxon esa Buxoroga Imomqulixon saroyidan panoh topadi. 1623-yilda Asfandiyorxon Eron shohi yordamida Xiva taxtini egallaydi. Ukasi Abulg‘oziyxonni Urganchga hokim qilib tayinlaydi. Aka-uka o‘rtasida nizo kelib chiqib, 1627-yildan boshlab Abulg‘oziy qozoqlar yeriga Eshimxon huzuriga, keyinchalik Toshkent hokimi Tursunxon bilan yurishga majbur bo‘ladi. 1629-yili turkman qavmlari taklifiga binoan Xorazmga qaytadi va akasi uni Xiva shahri hokimi etib tayinlaydi. Turkmanlarning Eronga qarashli Niso va Durun shaharlarini bosib olishi natijasida yuzaga kelgan Eron bilan munosabatlarni yumshatish uchun Asfandiyorxon ukasini Eron shohi saroyiga garovga jo‘natadi. 1639-yil yozida Isfahon yaqinidagi Taborak qala’sida 10 yil davom etgan tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo‘ladi. 1644-yilda bir necha yillik kurash so‘ng Xiva taxtiga o‘tiradi. 19 yil davomida Xiva xonligini boshqaradi, hukmronlik yillarida markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun harakat qiladi. Abulg‘ozzi Bahodirxon faoliyati bo‘yicha shug‘illangan H.Xudoynazarov Abulg‘ozixon Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyotining o‘tkir bilimdoni, ilm-fanga e’tiqod qo‘ygan, nodir me’moriy yodgorliklarning yaratilishida bevosita homiylik qilgan ma’rifatparvar davlat arbobi va adibdir¹. Shuningdek, xonlikda ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish uchun o‘z saroyida ilg‘or fikrli olimlar, shoirlar, tarixchilar, tabiblar, xattotlar, naqqoshlarni to‘plab, samarali ijod qilishlari uchun shart-sharoit yaratib beradi. Yoshligidan tarix ilmiga qiziqib, uni chuqur egallaydi, hukmdor davrida ushbu ushbu ilmlar o‘z foyidasini beradi. “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, “Manofe ul-inson” kabi tarixiy, huquqiy, siyosiy asarlarini yozadi. 1663-yilda hokimiyatni o‘g‘li Anushaxonga topshiradi.

Tarixni o‘rganishining ahamiyatini, sabablarini “Shajarayi turk” asarida quyidagicha tavsiflaydi: “Ammo bizning ota va aqalarimizning beparvoyligi va Xorazm xalqining bevuqufligiki, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilg‘an yeridin to bizga

¹ Xudoynazarov H. “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi/- T.: O‘qituvchi. 1993 – 4-bet

kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduk. Hech munosib kishi topmaduk. Zarur bo‘ldi. Ul sababdin o‘zimiz aytdik”²

Ilk yozgan kitobi “Shajarayi tarokima” deb nomlanib, 1661-yilda yozilgan. Eski o‘zbek tilida yozilgan ushbu asar Odam-Ato tarixidan boshlanib, turkiy qabilalar, jumladan turkman xalqining kelib chiqishi, turkman urug‘lari - solur, taka, boyandur, tevagi, yovmut ellari haqida keng ma’lumot beradi. «Shajarayi tarokima» turkman oqsoqollari va ulug‘ boshliqlarning taklifiga ko‘ra oddiy turk kishisi tushunadigan, hatto besh yashar turk o‘g‘loni ham angraydigan tilda yozilgan. Asarda Odam ato avlodlari, Muhammad alayhissalom payg‘ambarimizga qadar o‘tgan payg‘ambarlar eslanadi, Nuh payg‘ambarning Xom, Som, Yofas hamda Yofasning o‘g‘li Turk haqida hikoya qiladi, turk, mo‘g‘ul xalqlari tarixi so‘zlanadi, Qoraxon o‘g‘li O‘g‘uzxon faoliyati haqida to‘xtaladi, butun o‘g‘uz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug‘larining bir-biri bilan bog‘langan nuqtalari, tarixiy-etnogenezini ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o‘tilgan. «Shajarayi tarokima» asari Abulg‘oziy Bahodirxon taxtga o‘tirgandan ancha vaqt o‘tgandan so‘ng yozilganligi ta’kidlangan. Bu ma’lumotga qaraganda, 1660-1661 yillar orasida ijod qilingan. «Shajarayi tarokima» yozma obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlar bayon etilgan, o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasida inoqlik o‘rnatalishi ta’kidlangan³.

O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha muhim manbalardan hisoblangan “Shajarayi turk” asari Abulg‘ozzi Bahodirxonning shoh asari hisoblanadi. Asar muqaddima va 9 bobdan iborat.

² Bahodirxon A. Shajarayi turk: O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar uchun/ Masul muharrir va so‘zboshi muallifi B.A.Ahmedov/ - T.: Cho‘lpon. 1990 – 11-bet

³ <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/225-shajarai-tarokima-abulg%CA%BBizi-bahodirxon.html>

Birinchi bobi Odam atodan boshlanadi va qadimgi turk hukmdorlaridan Mo‘g‘ilxongacha;

Ikkinci bobi Mo‘g‘ilxon dan Chingizzongacha;

Uchinchi bobi Chingizzon tarixi;

To‘rtinchi bobi O‘qtoy qoon va Mo‘g‘iliston da Chingiziy nasllari haqida;

Beshinchi bobi Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig‘atoy nasllari;

Oltinchi bobi Chingizzonning kenja o‘g‘li Tuluxon va uning avlodlari

Yettinchi bobi Jo‘jixon va Oltin O‘rda davlati;

Sakkizinchi bobida Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybonxon va uning naslidan bo‘lgan hukmdorlar tavsifi

To‘qqizinchi bobida Xorazmda Shayboniy lar davlati - Xiva xonligi haqida yozilgan. Asarning O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha uchinchi, beshinchi, yettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi boblari qimmatlidir. Venger sharqshunos olimi German Vamberi Abulg‘ozi Bahodirxon ijodiga baho berar ekan shunday deydi: “Abulg‘ozi Bahodirxonning ko‘pgina ishlari Buburni xotiraga tushiradi... Jahon uning “Shajarayi turk” nomli tarixiy asari uchun undan minnattordir”⁴.

“Shajarai turk”da Abulg‘oziy Bahodirxon xalqning shajarasini, tarixini tahliliy taraqqiyotda ko‘rsatishga intilgan. Bayonni ixcham, izchil, voqealarni latifa, rivoyat, hikoyat uslubida sodda va tushunarli tarzda aks ettirgan. Turkiy xalqlarning 40 ga yaqin el-u elatlarini zikr etarkan, ularning tarixi, yigitlarning jasurligi, jang-u jadallardagi mardligini ulug‘laydi.

Shuningdek 9-bobida Movarounnahr, Xorazm hududlari bosib olinishidan avval Temuriylar bilan bo‘lgan munosabatlar haqida ham so‘z boradi, xususan temuriy Abu Said taxtni egallah shayboniy Abulfayzxondan olgan yordami, Abulfayzxonning Toshkent, Buxoroga bosqinlari haqida ham ma’lumot beradi. Temurbiy avlodidin Movarounnahrda Abu Said mirzo o‘z qarindoshlaridin Abdulatif mirzoni o‘ldribdur. Taki yurtga

⁴ Vamberi G. Istorya Buxari ili Mavaraunnahra. Tom 1, Moskva, 1964, 155-bet.

ega bo‘libtur. Abdulatif mirozning o‘g‘li Mirzo Muhamad jo‘gi qochib Abulxayrxonga borib turur. Abulxayrxonning xotini Abdulatif mirzoning singlisi ekandur⁵.

Xorazmda shayboniylar humkronligini o‘rnatilishi va Xiva xonligi hukmdorlaridan Berka sulton, Elbars sulton, Bilbars sulton, Yodgorxon, Burgaxon, Avanishxon, Arab Muhammadxon, Asfandiyorxon, Buxoro shayboniylaridan Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II larning faoliyatiga nisbatan iliq munosabatdaligini aytib o‘tadi. Ubaydullaxon, Abdullaxonlarni Xorazmni bosib olishida yuz bergan tarixiy voqealarni ham bayon qiladi. Hamisha xondin madad tiladi. Ubaydxon taqi Urganchning buzulg‘anini eshitti. Agar borsam yarmi Amnakxonning o‘g‘lonlariniki bo‘lsa, yarmi meniki bo‘lur tedi. Taqi barcha Abulxayrxonning o‘g‘lonlari otlanmoqda ittifoq qilib Toshkenddin Baroqxon, Samarqanddin Juvanmardxon, Xisordin Hamza Mahdiy sultonning nabiralari, Buxorodin Ubaydxon barchasi otlandilar-da Urganchga keldilar⁶.

Xulosa. Abulg‘oziy Bahodirxonning tarixiy asarlari o‘zligimizni anglash, milliy qadriyatlarimiz tiklanayotgan bugungi kunda o‘z ahamiyatiga egadir. “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” asarlari tarixiylik nuqtayi nazaridan XV asrning so‘nggi choragi – XVI asr boshlaridagi ahvol, Sibir xonligi va Xiva xonligi munosabatlari, XVI – XVII asrlardagi Rosssiya, qozoq juzlari, turkman qabilalari, Buxoro xonligi bilan o‘rtadagi munosabatlar bayon qilinadi. Etnografik manbalardan turk-mo‘g‘il qabilalari, xususan o‘zbeklar, turkmanlar urug‘lari haqida keng ma’lumotlar beriladi. Xalqlar o‘rtagidagi aloqalar bunda muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol hususida gap ketganda Amudaryo daryoning Xorazm xalqi uchun, turkman, qozoqlar dehqonchilik qilishi uchun ahamiyati bayon qilinadi.

⁵ Bahodirxon A. Shajarayi turk: O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar uchun/ Masul muharrir va so‘zboshi muallifi B.A.Ahmedov/ - T.: Cho‘lpon. 1990 – 116-bet

⁶ Bahodirxon A. Shajarayi turk: O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar uchun/ Masul muharrir va so‘zboshi muallifi B.A.Ahmedov/ - T.: Cho‘lpon. 1990 – 133-bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodirxon A. Shajarayi turk: O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar uchun/ Masul muharrir va so‘zboshi muallifi B.A.Ahmedov/ - T.: Cho‘lpon. 1990 – 192 b.
2. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/225-shajrai-tarokima-abulg%CA%BBozi-bahodirxon.html>
3. Xudoynazarov H. “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi/ - T.: O‘qituvchi. 1993– 129 b
4. Vamberi G. Istorya Buxari ili Mavaraunnahra. Tom 1, Moskva, 1964 – 226 b.